Nazarova Shahzoda	
Boshlang'ich ta'lim o'quv jarayoniga sun'iy intellektni tatbiq etishning metodik asoslari (sinfidan tashqari ishlar misolida)	744
Nigmatullayeva Matluba Izatullo qizi	
Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining o'quvchilarda ijtimoiy faollikni shakllantirishdagi pedagogik imkoniyatlari	748
Normaxmatov Ilhom Zayniddinovich	
Boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining imkoniyatlari.....	751
Qurbonov Sanjar Rajabboyevich	
Sportchi salomatligini baholashda zamonaviy texnologiyalar.....	754
Samandarov A. X.	
Sport tashkilotlari uchun marketing, e-marketingning foydalari	758
Samatov Javlonbek Abdukayumovich	
Futbol o'yinlari orqali o'quvchilarda jismoniy tarbiya pedagogikasining ahamiyati	762
Sattarov Qarshiboy Norqulovich	
Kichik maktab yoshidagi bolalarda lingvistik kreativ intellektni shakllantirishning pedagogik shartlari	765
Shodiyev Rizamat Davronovich, Jabborova Maftuna Komil qizi	
Ota-onalar bilan samarali hamkorlikni tashkil etishda direktorning strategik yondashuvi.....	770
Tog'ayeva Shahnoza Shavkatovna	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa tinglash	774
Xodjayeva Nilufar Latipovna	
Talabalarda kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilish orqali sog'lom fikrlarni shakllantirish masalasi.....	778
Xudayberganova Nargisa Qurbonbayevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirishda interfaol metodlarning ahamiyati	782
Kursanova Marjona Baxtiyor qizi	
Sun'iy intellekt – bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilari ta'limini modernizatsiya qilish vositasi sifatida	785
Yoqubaliyeva Dilafruz Payzidin qizi	
Tibbiy pedagogika: kasbiy ta'limda sog'lom turmush tarzi shakllantirishning psixopedagogik asoslari.....	788
Ziyatov Muhammad Namazovich	
Интерактивное обучение в развитии личности и критического мышления студентов	792
Рысова Галия Байбулатовна	

Значение искусственного интеллекта в области педагогики на основе мультимедийных приложений	795
Begaliyev Fayzali Umaraliyevich	
Favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan tibbiy profilaktik ishlar	798
Mahmudov Otamurod Hoshimovich	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida haykaltaroshlik san'ati bilan korruptsiyaga qarshi boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish	802
Toshpulatova Fotima Saydullayevna	
Tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish usullari	805
Abdulvohidov Turg'unali Abduqaxxor o'g'li	
Zamonaviy pedagogik jarayonlarda uzluksiz kasbiy rivojlanish va uning o'quvchilarning natijalariga ta'siri	808
Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi	
Tibbiyot ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari	811
Amonova Madina Furkatovna	
Matematika fanini o'qitishda fanlararo integratsiya.....	814
Arabbayeva Zamiraxon Tadjibayevna	
PISA 2025 tadqiqotlariga doir tajriba sinov ishlari (O'zbekiston misolida).....	817
Doniyorov Muxiddin Normamatovich	
Maktabgacha ta'limning rivojlanish markazlarida ta'lim-tarbiya jarayonida o'yinlardan foydalanish va tahlil qilish.....	820
Eshmuratova Gauhar Maxsudovna	
Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish	824
Matjanova Gulzada Annabayevna	
Al-Xorazmiy asarlari vositasida talabalarda analitik fikrlashni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	828
Qaxxorova Shaxnoza Abduvasit qizi	
Xalq og'zaki ijodi vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehnat tarbiyasini shakllantirish	832
Rahmonova Zamiraxon Yakubovna	
Jonli tabiat burchagini tashkil etish metodikasi.....	835
Yaylovboyeva Maftuna Lochinbek qizi	
Maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarda raqamli intellekt (DQ) va divergent fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish.....	838
Yusupova Xabiba Iriskulovna, Nazarmatova Dilshoda Umarali qizi, Xusanova Dilraboixon Botiraliyevna	
Integratsiyalashgan ta'lim jarayonida yaratiladigan metodikalar va loyiha ishlari.....	843
Ergasheva Mahbuba	
Инновационные педагогические подходы в системе образования и их эффективность	846
Уринбаев Исроилжон Кадиrhoнович	
Pedagogik faoliyatda kasbiy stress va uni keltirib chiqaruvchi omillar.....	851
Boymirzayeva Nafisaxon Baxodir qizi	
Talabalarda milliy tarbiya va axloqiy immunitet tushunchalarini rivojlantirishning milliy-tarixiy kontekstual jihatlari	855
Rasulov Baxtiyor Maxmudjonovich, Abdullayeva Arofatxon Abduvaxobovna	
TRIZ texnologiyasi – uchinchi renessans poydevori	860
Yusupova Gulshiraxon Zinatdinovna	
Yoshlar mafkurasini shakllantirishda hozirgi zamon ijtimoiy tarmoq va raqamli platformalarning o'rni.....	865
Xonimov Sharofiddin Bahodirovich	
O'zbek tilini o'qitishda raqamli ta'lim resurslarining o'rni va xususiyatlari.....	870
Ashurbayeva Rukiya Kaxxarovna	
Xiva xonligining tashqi savdo aloqalari tarixidan	874
Abduraimova Charos Nodir qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarini boshqaruv madaniyatini shakllantirish omillari.....	878
Abduraxmonova Xurshida G'ofurovna	
Gandbol sport turini umumiy o'rta ta'lim maktablarida rivojlantirish.....	881
Ahmadjonov Dilmurod Davronjon o'g'li, Abduraxmonov Saydillo Xakimovich	
PIRLS xalqaro tadqiqotida matn, topshiriqlar va baholash mezonlari	884
Amonova Aziza Saydulloyevna	



Tibbiyot ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari	888
<i>Amonova Madina Furkatovna</i>	
Morfonologiya va uni umumiy ta'lim tizimida o'qitish	891
<i>Asatullayeva Dilnavoz Jondullayevna</i>	
Biologiya darslarida lokal darajadagi texnologiyalardan foydalanish metodikasi	894
<i>Azimov Ibragimjon Toshpo'latovich, Mirzaboev Timur Bisenboy o'g'li, Toshpo'latova Nigina Ibrohimjon qizi</i>	
Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining shakllari va umumiy tuzilishi	898
<i>B. R. Xudoyberdiyev</i>	
Cognitive Justification of Humor in Modern Linguistics	901
<i>Bektoshev Mubashirkhon Odilbek Ugli</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish	905
<i>Botirova Lobar Kamolovna</i>	
Toshkent viloyatida rekreasion faoliyat rivojlanishining asosiy muammolari	910
<i>Djurayeva Lobar Vaxitovna</i>	
Didactic Features of Using E-Portfolios in Continuing Professional Development of Teachers	915
<i>Erkaboyeva Saodathon</i>	
O'quvchilar xulqida yuzaga keladigan salbiy o'zgarishlarning korreksiyalashga xizmat qiladigan manbalar	918
<i>F. A. Choriyeva</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida chet tilida lug'at boyligini oshirishning samarali usullari	921
<i>G'ulomjonova Mubdi'ma G'ayratjon qizi</i>	
Kitobxon badiiy adabiyotni qanday anglaydi	924
<i>Hamdamova Dilshoda Rustamjon qizi</i>	
Zamonaviy ta'limda talabalarda ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishning pedagogik asoslari	928
<i>Ibragimova Dilnoza Rashid qizi</i>	
The Pedagogical Role of the Community in Promoting Abilities of Students	931
<i>Isabayeva Dilfuza Komiljonovna</i>	
Ta'lim sifatini oliy ta'lim tashkilotlarida yaxshilashda til bilishning o'rni	934
<i>Isaqulova Baxtigul Xo'jamovna</i>	
Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda ingliz tili darslarida interaktiv media vositalarining ta'siri	938
<i>Ismoilova Zarifa Abduqaxxorovna</i>	
O'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishda xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish metodikasi	942
<i>Jabborova Shahodat Ibrohim qizi</i>	
Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida deontologik qadriyatlar va professional etikani rivojlantirish	945
<i>Kalandarova Fazilat Toxirovna</i>	
Voleybolda maxsus chidamlilikni rivojlantirishning umumiy tushunchalari	948
<i>Karimova Gulhayo Botirjon qizi</i>	
The Portrait of the Image of Manfred in the Translation of J.G. Byron's Poem "Manfred"	953
<i>Kurbonov Parda Akhmedovich</i>	
Suv aralashmasi temperaturasi aniqlash	958
<i>Mamatova Go'zaloy Jo'ramirzayevna, Mashrabboyeva Mubina Bobomurod qizi, Abdurahmonova Gulasal Avazbek qizi</i>	
Yosh bokschilarning texnik-taktik harakatlarini takomillashtirish yo'llari	961
<i>Mamatqulov Xusanboy Baxtiyor o'g'li</i>	
Maktab direktorlarini qo'llab-quvvatlashda asosiy ustun amaliyotlar va O'zbekiston ta'lim tizimida ularni qo'llash imkoniyatlari	965
<i>Mamura Tadjibayeva</i>	
Adabiy ta'limda scamper metodining qo'llanilishi	969
<i>Marjona Toshpulatova</i>	
Maktabgacha ta'limda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda matematika va savod asoslarining didaktik yechimlari	974
<i>Mingboyeva Guldorxon Maxmudovna</i>	
Umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'limni joriy etishning dolzarb muammolari va mavjud imkoniyatlari ..	977
<i>Mo'minova Qunduz Xolmamat qizi</i>	
"Jasper Jones" as New Life Given to The Novel "To Kill a Mockingbird"	982
<i>Nargiza Akhrorova</i>	

Sun'iy intellekt asosida matematik masalalarni yechish algoritmlari	985
<i>Oqnazarov To'liqin Jalilovich, Jo'rayev Mardon</i>	
Matematika darslarida kombinatorika elementlari va mantiqiy masalalar yechishga o'rgatish metodikasi ..	990
<i>Panjiyeva Shahlo Zulfikar qizi</i>	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilari lisoniy-muloqot kompetentligini rivojlantirishga qo'yiladigan didaktik talablar.....	993
<i>Raximova Charosxon Baxromjon qizi</i>	
Kurash texnikasi va taktikasini bolalarga o'rgatish yo'llari	996
<i>Raxmonov Dilmurod Nusratovich</i>	
Pedagogical Technologies in Modern Education: Trends and Applications.....	999
<i>Salimova Bakhora Khurbanovna</i>	
Global ta'lim makonida milliy tarbiyani rivojlantirish istiqbollari.....	1003
<i>Sanaqulov Sardor Istamqulovich</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z turkumlari mavzusini o'rgatishda qiziqarli o'yinlardan foydalanish.....	1006
<i>Shomurotova Sevinchoy San'at qizi</i>	
Kredit-modul tizimida texnologik fanlar o'qituvchilarini tayyorlashda raqamli avtomatlashtirilgan o'quv modullari yaratish imkoniyatlari	1009
<i>Turdikulova Sevara Abdumominovna</i>	
Tyutorlik faoliyatining zamonaviy ta'lim tizimidagi ahamiyati va murabbiylik an'analarning uzviyligi	1012
<i>Ubaydullayev Zuxriddin Botirovich</i>	
O'zbekistonda til ta'limida innovatsiyalar: sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar yondashuvi	1016
<i>Umarova Iroda Shavkatjon qizi</i>	
Pedagogical Situation of Developing Students' Critical Thinking	1020
<i>Usmonova Oydin Sherali kizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik texnikani rivojlantirishning didaktik omillari	1024
<i>Xolmo'minova Bahora Abduljalolovna</i>	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishga qo'yiladigan didaktik tamoyillar ..	1027
<i>Xurshidjon Raximov Xursandjon o'g'li</i>	
O'zbekistonda steam ta'lim tizimini tatbiq etishning nazariy aspektlari	1031
<i>Yaxshiboyeva Sitara Toshpulat qizi</i>	
Oliy ta'limda talabalar ijodiy salohiyatini shakllantirishda pedagogik innovatsiyalarning o'rni va imkoniyatlari	1034
<i>Yuldashev Abdurauf Ro'zmatjonovich</i>	
Talabalarda nutqiy faoliyatni rivojlantirishga doir olib borilayotgan ishlarning joriy holati	1037
<i>Yusufova Gulhayo Nosirxon qizi</i>	
Ingliz tili fanini o'qitishda (PBL) loyiha va muammoga asoslangan metodika: O'zbekiston tajribasi va xalqaro amaliyot	1040
<i>Zarina Tasheva Djumayevna</i>	
Актуальные проблемы изучения русского языка	1043
<i>Абдуллаева Нигора Курбановна</i>	
Применение цифровых средств обучения в курсе "Окружающий мир" для изучения народной экологии в начальной школе	1046
<i>Бобаева Зиёдахон Махамаджон кизи</i>	
Tasviriy san'at darslarini o'qitishga innovatsion yondashuv.....	1049
<i>N. P. Kaipov</i>	
Важность разработки стратегических программ развития страны.....	1052
<i>Каримова Нуржохон Олим кизи</i>	
Pedagog kadrlar kasbiy kompetentligi diagnostikasining kvalimetrik texnologiyalari	1056
<i>Mirsoliyeva Muhabbatxon To'xtasinovna</i>	
Анализ элективных курсов по информатике в зарубежных странах и их аналогов в системе образования Узбекистана	1060
<i>Урынбаева Азада Бахадировна</i>	
Multimedia texnologiyalarining ta'lim tizimiga integratsiyasi.....	1064
<i>Raximova Dilfuza Abduraxmonovna</i>	



XIVA XONLIGINING TASHQI SAVDO ALOQALARI TARIXIDAN

Abduraimova Charos Nodir qizi

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xiva xonligining mintqa mamlakatlari hamda yaqin qo'shni davlatlar bilan savdo-sotiq munosabatlarini yo'lga qo'yish jarayoni tarixiy manbalar asosida yoritiladi. Shuningdek, xonlikning xo'jalik hayoti va u yerda ishlab chiqarilgan tovarlar haqida ham ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: feodal, savdo-sotiq, xususiy yer, kanal, diplomatik aloqalar, botmon, tanob.

Abstract: This article explores, based on historical sources, the establishment of trade and economic relations between the Khiva Khanate and regional as well as neighboring countries. It also provides information about the khanate's economic life and the goods it produced.

Key words: feudal, trade, private land, canal, diplomatic relations, botmon, tanab.

Аннотация: В данной статье на основе исторических источников раскрывается процесс установления торгово-экономических отношений Хивинского ханства с региональными странами и близлежащими соседними государствами. Также приводятся сведения о хозяйственной жизни ханства и производимых там товарах.

Ключевые слова: феодал, торговля, частная земля, канал, дипломатические отношения, ботмон, танаб.

KIRISH

Xiva xonligi tuzilishi jihatidan feodal davlat bo'lib, aholining 95 foizi qishloq xo'jaligi bilan shug'ullangan. Ekiladigan yer maydonlarining aksariyati xon va beklar, masjid va madrasalar, katta yer egalari mulki hisoblangan.

Ekin maydonlari asosan 3 turga bo'lingan. Bu davrda xonlikning 800 mingga yaqin aholisi bo'lib, ularning 65 foizini o'zbeklar, 26 foizini turkmanlar, qolgan qismini esa qoraqalpoqlar va qozoqlar tashkil etgan.

O'rta Osiyo davlatlari uzoq davrlar mobaynida Xitoy, Hindiston, Eron, Afg'oniston va Sharqdagi boshqa mamlakatlar hamda Rossiya davlati bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarda bo'lib kelganlar. Ayniqsa, O'zbekistonning qo'shni davlatlar bilan hozirgi kundagi yaqin do'stona aloqalarining ildizlari ana o'sha uzoq tarixiy davrlarga borib taqaladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ma'lumki, XVI asrdan boshlab Osiyo hududida Xiva xonligi vujudga kelgan. Mazkur tadqiqotda XVI–XIX asrning birinchi yarmida Xiva xonligining Xitoy, Hindiston, Eron, Afg'oniston va Rossiya bilan iqtisodiy savdo aloqalari masalalari yoritilgan. Ushbu bitiruv malakaviy ishini yozishda mahalliy manbalardan, rus sayyohlari, diplomatlari va elchilarining bergan ma'lumotlaridan, shuningdek nashr qilingan rus va o'zbek tilidagi kitoblardan keng foydalanildi.

Xiva xonligining aloqalar tarixini o'rganish va yoritishga rus hamda ingliz tadqiqotchilari katta hissa qo'shganlar. Ularning ayrimlari sayyoh va diplomat sifatida xonlik hududlariga kelganlarida yo'llar, quduqlar, manzil-makonlar, istehkomlarni sinchkovlik bilan kuzatib, barcha belgilarni eslab qolishga harakat qilganlar. Natijada Xiva xonligi haqidagi josuslik ma'lumotlari to'plana boshlangan va ulardan kelgusida amalga oshiriladigan harbiy maqsadlarda keng foydalanilgan.



Bunday manbalar qatoriga kapitan Nikolay Muravyovning sayohati tafsilotlari¹ hamda polkovnik G.I. Danilevskiy va polkovnik N.P. Ignatev ekspeditsiyalarining hisobotlari kiradi. Xiva xonligi tarixini o'rganishning yangi sahifasi Chor Rossiyasi bosqinidan keyin boshlandi. Ruslar bilan Xivaga kelgan sharqshunos A.L. Kun, Ye. Jelyabujskiy², general-leytenantlar V.N. Trotskiy³ va M.A. Terentev⁴, polkovniklar L.F. Kostenko⁵ va F.I. Lobisevich⁶, amerikalik jurnalist A.Ya. Mak-Gaxan o'zlarining taassurotlari asosida qiziqarli asarlar yozganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada umumiy qabul qilingan metodlar – xolislik, tarixiy tahlil, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik ketma-ketlik tamoyillari asosida Xiva xonligining tashqi savdo-sotiq munosabatlarini ilmiy manbalar asosida yoritib berish ko'zda tutilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

XVI asrdan boshlab tarix sahnasida muhim iz qoldirgan O'rta Osiyo xonliklaridan biri Xiva xonligidir. Xiva xonligi Buxoro amirligi kabi, o'zining geografik jihatdan qulay joyda joylashganligi va suv yo'li bilan ta'minlanganligi sababli, O'rta Osiyodagi eng rivojlangan davlatlardan biri bo'lgan. Xiva xonligi karvon yo'llari ustida joylashgan bo'lib, ayniqsa Rossiyaning Buxoro bilan savdo aloqalarida muhim o'rin egallagan. Xiva xonligi G'arb bilan Sharq o'rtasidagi savdoda faol qatnashgan. Xonlikning tashqi savdo aloqalaridagi keng ishtiroki uning hunarmandchilik taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan. Xonlik poytaxti – Xiva shahri hunarmandchiligi uzoq tarixiy an'analariga ega. O'rta asrlarda shahar hunarmandchiligi ixtisoslashtirilgan edi. Jumladan, Xivada gilam to'qish, yog'och o'ymakorligi, to'quvchilik va boshqa hunarmandchilik tarmoqlari mavjud bo'lgan.

1753-yil Xiva va Buxoroda bo'lgan rus savdogari D. Rukavkin paxta ekinining mo'lligi va hunarmandchilik korxonalari ochish uchun davlat tomonidan ma'lum tartib-qoidalarining yo'qligini yozadi. Uning xabariga ko'ra, bu yerda hech qanday ruxsat olmasdan xohlagancha zavodlar, ya'ni korxonalar ochish mumkin bo'lgan. Bu o'rinda, albatta, xivaliklarning xususiy korxonalarni ochishga davlat tomonidan to'siq bo'lmaganligi e'tirof etiladi. XIX asrning 30–40-yillarida Xivada hunarmandchilik sohalarining eng muhimlaridan biri zargarlik hisoblangan. Zargarlar tilla buyumlar, taqinchoqlar yasashda feruza, korall, marvarid, lal, zumrad, rangli shisha, safir kabi toshlardan ko'p foydalangan.

XIX asrning ikkinchi yarmida saqlanib qolgan hunarmandlar va savdogarlar nomlari Xiva bozorlaridagi tovarlar xilma-xilligi haqida tasavvur qilishga imkon beradi. Jumladan:

- pazachi – yer haydash asboblari yasovchilar;
- xarrak – temirchilar;
- kuchanchi – buyincha yasovchi ustalar;
- misgar, zargar, pichoqchi, qinchi, bo'yovchi, choponfurush, telpakdo'z, konchi, kovushdo'z, tavoqchi, qulfgar, kiyizfurush, juvozchi, sholikor – sholitegirmonda ishlovchi;
- qassob, tuzchi, kallapoz – qo'y kallasi sotuvchilar;
- baliqchi, nonvoy, choy va tamaki sotuvchilar, baqqollar, yog'ochfurushlar, ko'mirchi, shamchi, sovunchi, sarrof, jarchi va boshqalar.

XVII asrda ham Xiva xonligi bilan Rossiya o'rtasida elchilik va savdo aloqalari davom etgan. Elchilar Xiva xoni nomidan rus podshosiga tortiqlar olib borgan. Hadyalar tarkibida hind tovarlari ham bo'lgan. Masalan, 1641-yil noyabrda Xiva elchisi Muhammad Amin Bahodir tomonidan 100 ta hind viboykasi olib kelinganligi, elchining o'zida esa boshqa tovarlar qatorida 100 bo'lak hind chiti, 4 idishda nil bo'yog'i bo'lganligi ma'lum. Rus elchisi Ivan Fedotov 1669-yil 13-iyunda Xiva xoni Anusha xon huzurida bo'lgan va Rossiyaga qaytib kelgach, o'z axborotida buxoroliklar va xivaliklar o'zaro savdo qilishi, bozorlarda uchratgan tovarlari va ularning narx-navosi haqida ma'lumot bergan. U urganchlik savdogarlar Buxorodan viboyka, ip gazlama va rang-barang ipak matolar keltirishini, lekin buxorolik savdogarlarning Xiva va Urganchga kam kelishini e'tirof etgan. Shu

1 Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 гг. гвардейского Генерального штаба капитана Николая Муравева, посланного сию страну для переговоров. Т. 1. – М., 1819; Т. 2. – М., 1820; Записки Н.Н.Муравева – Карского Путешествия в Хиву // Русский архив, 1887, № 3. – Б. 5-42; Muravev N. Xiva tijorati. 1819-1820 yillarda O'rta Osiyoga sayyohat // Hayot va iqtisod, 1993, № 3. – B. 74-75.

2 Желябужский Е. Очерки и завоевание Хивы. С 9-ю картинками. – М., 1875 // Туркестанский сборник, т. 85.

3 Хивинский поход 1873 г. по офитсиалним источникам. Под ред. В.Н.Тротского. – СПб., 1873.

4 Терентев М.А. История завоевания Средней Азии. В 3-х томах. – СПб., 1906.

5 Костенко Л.Ф. Город Хива в 1873 г. – СПб., 1873.

6 Лобисевич Ф.И. Описание Хивинского похода 1873 года. – СПб., 1898.



bilan birga, I. Fedotov hindlar va balxliklar Xivaga kelmasligini, hamda Xivada hind omborlari ham yo'qligini xabar bergan. Qizig'i shundaki, elchi Xiva bozorlarida sotilayotgan tovarlar narxini Astraxandagi narxlar bilan taqqoslab, bu tovarlarni Rossiyada sotishdan foyda chiqmasligini hisoblagan.

I. Fedotov ko'rsatmalaridagi hindlar va balxliklarning Xiva bilan savdo qilmasligi haqidagi xabar ikki yil avval, ya'ni 1667-yildagi Xiva elchisi Po'lat Muhammadning bergan ma'lumotlariga zid keladi. Aftidan, I. Fedotov Sharq davlatlarida savdoning o'ziga xos jihatlaridan bexabar bo'lgan. Ko'p holatlarda O'rta Osiyo xonlari bilan Hindiston shohlari o'rtasidagi savdo A. Chuloshnikov eslatib o'tgan savdo usullari orqali amalga oshirilgan. Mahmud ibn Vali "Bahr-ul-asror" asarida Balx viloyati, uning jug'rofiy o'rni, aholisi, poliz va sabzavot ekinlari haqidagi bo'limda u yerda yetishtiriladigan va chetdan olib kelinadigan mahsulotlar haqida xabar berib, Xorazmdan ko'ktarnay qovuni, Buxorodan qora qovun, mulla payandagi va daroyi, Samarqandning zag'ara qovuni va gilosi, Shimoliy Xitoyning shaftolilari, Xorazmning tut daraxtlari, Marg'ilonning charxi deb atalgan o'riklari, Samarqandning sangak olmasi va boshqalarning Balxga keltirilganligi, hattoki u yerda yetishtirila boshlanganligini ta'kidlaydi. Demak, Xorazm qovunlari Balxda ham mashhur bo'lgan. Ma'lumki, qovun suvsiz o'smaydi, ko'p sug'orilsa, unchalik shirin bo'lmaydi. Mahmud ibn Vali Xorazmda sug'ormasdan qovun yetishtirish siri haqida ma'lumot beradi. Uning yozishicha, yantoqning uzun tomiri uzunasiga kesilib, unga qovun urug'i joylashtiriladi, ya'ni ekiladi. Qovun o'sib chiqib, pishgunga qadar yantoq ildizi suvi bilan oziqlanadi. Bunday qovun katta va shirin bo'lgan. Bu kabi qovun yetishtirish usuli hozirgi kunda ham Buxoro viloyatining ba'zi cho'l hududlarida qo'llaniladi. Mahmud ibn Vali Xorazmning rus yerlari bilan savdodan katta foyda olayotganini ta'kidlab o'tgan edi.

XVIII asrning 40-yillari oxirlaridan Erondagi ichki vaziyatning og'irligi va g'alayonlar hind savdosiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Eronda xonavayron bo'lgan hind savdogarlari endilikda e'tiborlarini O'rta Osiyo savdosiga qaratishga majbur bo'lgan. Avvallari unchalik rivojlanmagan hind savdosi XVIII asrning ikkinchi yarmida muntazam davom etadigan va keng miqyosda olib boriladigan bo'ldi. Demak, birinchidan, Xiva xonligi Eron bilan savdo aloqalarini o'rnatgan bo'lgan; ikkinchidan, Xiva tovarlari hind savdogarlari orqali Rossiyaga olib borilgan; uchinchidan, hindlar Eron orqali Xiva–Rossiya savdosida vositachilik rolini bajargan.

XVIII–XIX asrlarda Xiva xonligi muayyan dinamik taraqqiyot bosqichiga erishgan edi. Qo'shni Buxoro amirligi, Qozoq juzlari va bebosh turkman urug'larining murakkab o'rovi sharoitida bo'lishiga qaramay, xonlikda ba'zi stabil holatlar kuzatilgan. Shu davrda Xiva o'zining tashqi savdo munosabatlariga ham katta ahamiyat bergan. Lekin to'plangan materiallar shuni ko'rsatadiki, Xivaning tashqi iqtisodiy munosabatlari ko'proq Rossiya va u orqali G'arb mamlakatlari tomon yo'naltirilgan. Xuddi shuningdek, G'arb mamlakatlarining, xususan, Angliyaning Xivaga bo'lgan qiziqishi va u orqali Eronga chiqish tendensiyasi paydo bo'lgan. Aslida bu intilish XVI asrdan boshlab kuzatiladi. Masalan, Angliyaning Moskvada tashkil etilgan savdo kompaniyasi Ioan Grozniy yorlig'i bilan A. Jenkinson rahbarligidagi savdo ekspeditsiyasiga sabab bo'lgan. 1726-yilda Peterburgga xivalik elchi Subxonqulibek keladi. U rus hukumati oldiga Rossiya bilan Xiva o'rtasida savdo munosabatlarini qaytadan yo'lga qo'yish masalasini qo'yadi. 1726-yil 17-sentyabrda Oliy maxfiy kengash Rossiyadan Xivaga savdogarlarni jo'natish xivaliklar uchun ham, Xivadagi rossiyaliklar uchun ham foyda keltiradi, axir savdoning taqiqlanishidan ham xazina, ham savdogarlar zarar ko'rmoqda, degan xulosaga kelgan edi.

Subxonqulibek elchilik missiyasiga javoban Rossiya Oliy maxfiy kengashi Xiva bilan savdo munosabatlarini o'rnatish to'g'risida maxsus qaror qabul qilgan va Astraxandagi tayanch punktidan foydalanib, o'sha paytda Rossiya bilan savdo aloqalarida mashhur bo'lgan samarqandlik Yodgor Alimov rahbarligida Xivaga rus savdo karvoni jo'natiladi. 1728-yilda Xivaga jo'natilgan ushbu karvon boshlig'i Yodgor Alimovga Rossiya savdo aloqalari uchun nafaqat Xiva, balki Buxoro, Samarqand, Balx, Badaxshon, Koshg'ar, Toshkent, hatto Boburiylar Hindistonining Kobul va Laxor shaharlarigacha qanday imkoniyatlar borligini o'rganish vazifasi topshiriladi. Ushbu savdo karvonini himoya qilish uchun Yoyiq kazaklaridan tuzilgan otliq askarlar ajratiladi. Yuqoridagi Oliy maxfiy kengash qarorida Astraxan va Rossiyaning boshqa shaharlarida Xiva va Buxorodan keltirilgan mollar bilan savdo qilishga ruxsat berilgan edi. Xiva va Buxorodan Astraxanga tovarlarni o'rtaosiyolik savdogarlar – xivaliklar, buxoroliklar va turkmanlar olib kelgan. 1730-yillarda Astraxanga keltirilgan jami tovarlarning taxminan 51 foizi o'rtaosiyoliklar zimmasiga to'g'ri kelgan. Ular orasida xivaliklar yetakchi mavqeni egallagan. 1734–1735-yillarda o'rtaosiyolik savdogarlar Astraxanga 17 ming rubl qiymatidagi tovar olib kelgan bo'lib, shundan 13 ming rubli xivaliklar hissasiga to'g'ri kelgan.

XULOSA

Xulosa shuki, mavjud manbalar, elchi va savdogarlarning ko'rsatmalari, elchilarning kundaliklarida e'lon qilingan xabarlar bizga Xiva xonligining tashqi iqtisodiy aloqalari to'g'risida muhim ma'lumotlar beradi va hozirgi kunda ham o'z qimmatini saqlab qolmoqda. Keltirilgan dalillarga asoslanib, Xiva xonligi XVI–XVIII asrlarda Buxoro, Eron, Hindiston va Rossiya davlatlari bilan qizg'in savdo va diplomatik munosabatlarni yo'lga qo'ygan, deyish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819–1820 гг. гвардейского Генерального штаба капитана Николая Муравьева, посланного в сию страну для переговоров. Т. 1. – М., 1819; Т. 2. – М., 1820; Записки Н.Н. Муравьева – Карского. Путешествие в Хиву // Русский архив, 1887, № 3. – Б. 5–42; Muravev N. Xiva tijorati. 1819–1820 yillarda O'rta Osiyoga sayyohat // Hayot va iqtisod, 1993, № 3. – B. 74–75.
2. Желябужский Е. Очерки и завоевание Хивы. С 9-ю картинками. – М., 1875 // Туркестанский сборник, т. 85.
3. Хивинский поход 1873 г. по официальным источникам. Под ред. В.Н. Тротского. – СПб., 1873.
4. Терентьев М.А. История завоевания Средней Азии. В 3-х томах. – СПб., 1906.
5. Костенко Л.Ф. Город Хива в 1873 г. – СПб., 1873.
6. Лобисевич Ф.И. Описание Хивинского похода 1873 года. – СПб., 1898.
7. Файзиев А.Ф. Ремесло Хивы в первой половине XIX века // Позднефеодальный город Средней Азии. – Ташкент, 1990. – С. 170.
8. Материалы по истории Узбекской, Таджикской и Туркменской ССР. Ч. 1. – Л., 1932. – С. 168.
9. Хаников Я.В. Пояснительная записка к карте Аральского моря и Хивинского ханства, с их окрестностями. – СПб., 1851. – С. 39–40.
10. Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных (география). Введение, перевод, примечания, указатели Б.А. Ахмедова. – Т.: 1977. – С. 24–25.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.